

QUR'ONI KARIM TAFSIR MATNLARINING FRAZEOLOGIK IMKONIYATLARI

Isoqova Adiba Sirojiddinovna

Termiz davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Maqolada frazeologizmlar haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Shuningdek Qur'oni Karim tafsir matnlarining frazeologik birliklar, ularning lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tafsir matnlaridagi hozirgi kunda juda kam qo'llanuvchi, ba'zi holatlarda esa umumiste'molda uchramaydigan ayrim frazeologik birliklar bayon qilinadi.*

Kalit so'zlar: *frazeologizmlar, frazeologik birliklar, tafsir matnlari, diniy tushunchalar, arab tili leksik birliklari, hozirgi zamon o'zbek tili frazeologik zaxirasi.*

Tilning lug'at tarkibini tashkil etuvchi birliklardan biri, shubhasiz, frazeologizmlardir. Frazeologizmlar til birligi sifatida nutqda namoyon bo'ladi. Ular nutqning ta'sirchan va bo'yoqdor bo'lishini ta'minlaydi. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi.

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir qismi bo'lib shakllanganligiga hali ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa-da, uning kelib chiqish tarixi til taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Tilshunosligimizda frazeologiya yuzasidan Sh. Rahmatullaev, A. Isaev, K. Bozorboev, A. Mamatov, B. Yo'ldoshev, U. Rashidova, Sh. G'anieva, Sh. Almamatova, B. Boltaeva¹ kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan bo'lib, ular frazeologizmning ma'lum bir qirralarini yoritishga xizmat qilishgan. Frazemalar ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Bunda leksemalar ustiga yangi ma'no yuklanib yaxlitlanadi.

Tilshunosligimizda diniy frazeologik birliklar deganda, asosan, Qur'oni karim oyatlari va hadislar matnidagi barqaror iboralar tushuniladi. Jahon tilshunosligida bu birliklarning lingvistik tadqiqotiga oid bir qancha ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Masalan, IX asr tatar xalqi tarixining islom dunyosi bilan chambarchas bog'liqligi, Qur'on ta'limotlarining ta'siri, diniy-so'fiylik adabiyotining keng tarqalishi diniy leksikaning boyishida asosiy omillari hisoblangan. Hozirgacha arab tili leksik birliklarining tatar tiliga kirib borishi turli jabhalarda o'rganilgan. Bu frazalar M. I. Mahmutov asarlarida batafsil tasvirlangan².

Qur'oni karimning o'zbekcha tafsir matnidagi frazeologik birliklar ham keng ko'lamga egadir. Bunday frazemalarning boshqa frazemalardan farqli o'ziga

¹ Boltaeva B. I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi. Fil.fan disser avtoreferati. Samarqand, 2019

² Maxmutov M. I., Xamzin K. Z., Sayfullin G. Sh. Arabsko-tatarsko-russkiy slovar zaimstvovaniy / pod red. M. I. Maxmutova. Kazan: Tatar. kn. izd-vo, 1965. 854 s.

xosligini alohida ta'kidlash lozim. Birinchidan, aksariyat diniy frazemalar arab, fors tillaridan o'zlashgan leksik birliklar asosida yuzaga kelgan bo'lib, hozirgi zamon o'zbek tili frazeologik zaxirasida to'laqonli birlik sifatida ham og'zaki, ham yozma nutq jarayonida qo'llanib kelinadi. Shuni yodda tutish lozimki, har qanday diniy tushunchalar, xalqning dunyoqarashi orqali yuzaga kelgan frazemalarni, og'zaki, yozma nutqda qo'llanishiga ko'ra ikki guruhga ajratish lozim. Birinchi guruhga diniy tushunchalar asosida umumxalq tilida, og'zaki nutqda barcha tomonidan qo'llanib kelinadigan iboralardir.

Qur'oni Karim tafsir matnlaridagi frazemalardan quyidagilarga e'tibor qaratsak:

*"Alloh ularni "mazax qiladi" va ularning shu (haddan oshgan) tug'yonlarida adashib yurishlariga imkon beradi..." (Baqara surasi 15-oyat)*³. Matndagi mazax qiladi frazemasini izohi aslida "birovning ustidan kulmoq" ma'nosini anglatadi. Misol: Farida qo'lini hamon peshonasida quyoshga soyabon qilib turib, eski vaqtlardagidek yashiriqcha mazax qildi.⁴

Biroq yuqoridagi oyatda frazema izohi tafsir matnida boshqacha ta'riflanadi, ya'ni Allohning "mazax qilishi" ularning qilmishlariga yarasha jazo berishidir. Tug'yon holatlarida davom etishlari esa berilajak jazoning ortishiga sabab bo'ladi. Alloh ularni shu holatda davom ettirishi ularning zararidir.

*"... Sizlarni (Musu qavmini) og'ir azoblar bilan qiynagan, o'g'illaringizni qatl etib, xotinalaringizni tirik qoldirayotgan Fir'avn navkarlaridan qutqarganimizni ham eslangiz. Bunda Rabbingizdan sizlarga ulkan bir sinov bordir..."*⁵. Ushbu tafsir matnida qatl etmoq frazemasini asosan badiiy uslubda ko'p qo'llanuvchi leksik birlik hisoblanadi. Bu qatl etmoq-o'ldirmoq ma'nosidagi salbiy bo'yoqdorlikka ega frazema.

Oli-Imron surasining 42-oyatida *"...Farishtalar: Ey, Maryam, Alloh seni (fazli uchun) tanlab oldi va (yomon ishlardan) pokladi hamda seni butun olam ayollaridan mumtoz etdi..."* jumalari keltirilgan. Ushbu oyatda berilgan mumtoz etmoq frazemasini ham juda kam qo'llanuvchi birlik sanaladi. Mumtoz so'zining lug'aviy ma'nosi mashhur, imtiyozli, saralangan deganidir. Biror fazilati, yaxshi tomoni bilan boshqalardan ajralib turadigan, afzalliklarga ega bo'lgan, yetuklik belgisidagi so'zdir.

Yana o'sha suraning 55-oyatida *"...Ey, Iso! Men seni vafot ettiruvchi, huzurimga ko'taruvchi, inkor etganlardan seni poklovchi (xalos etuvchi) hamda senga ergashganlarni qiyomat kunigacha kofirlardan yuqori qo'yuvchidirman..."* jumlasida vafot ettiruvchi frazemasini uyqu ma'nosida qo'llangan. Uni oldin uxlatib

³ Qur'oni karim. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.-T.:Munis nashriyoti, 2021.

⁴ Rashod Nuri Guntekin, Choliqushi

⁵ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.-T.:Munis nashriyoti, 2021.



qo'yib, so'ng ko'targan yoki vafot ettirishi osmonga chiqqanlaridan keyindir ⁶,"- deyiladi.

Moida surasining 1-oyatidagi "*Albatta, Alloh iroda qilgan narsaga hukm qilur..*" ⁷matnida uchrovchi iroda qilmoq frazemasi mavjud. Tilshunosligimizda iroda leksemasi –ot so'z turkumidagi birlik. Uni fe'l so'z turkumi birikuvi asosida frazemaga aylantirish juda kam holatlarda qo'llanadi.

"... Odamlarga ayollar, bolalar, tuganmas oltin-kumush boyliklar, (qimmat) baholi otlar, chorva va ekin-tikinlar kabi istak-xohishlarga **ko'ngil qo'yish** chiroyli qilindi..." (Oli-Imron surasi 14-oyat)⁸. Ushbu oyat matnidagi ko'ngil qo'yimoq frazemasi Sh.Rahmatullaevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" kitobida sevish hissiga erk bermoq izohi ostida talqin qilinadi.

Tafsir matnidagi "... Yo'q! Aksincha, sizlar yetimni **ikrom qilmaysizlar...**" (Fajr surasi 17-oyat) "... Bas, endi insonni qachonki, Parvardigori imtihon uchun **ikrom etib**, unga ne'mat ato etsa, darhol: "Parvadigorim (loyiq bo'lganim uchun) meni ikrom etdi", - der..." qo'llangan ikrom qilmoq frazemasi ham hozirda iste'molda deyarli uchramaydigan birlik sanaladi. Ikrom qilmoq- e'zozlamoq, hurmat qilmoq ma'nolarini anglatadi, hozirgi vaqtda o'zbek tilida izzat-ikrom ko'rsatmoq shaklida uchraydi.

Tafsir matnlarida juda ko'p o'rinlarda tug'yon urmoq frazemasi qo'llangan. Hozirgi tilshunosligimizda deyarli umumiste'molda uchramaydigan ushbu birlik ma'nosi jo'sh urmoq, junbushga kelmoq ma'nolarini izohlaydi:

"bas, o'shanda kimki (dunyoda) **tug'yonga ketgan** va dunyo hayotini (oxiratdan) ustun qo'ygan bo'lsa..."

"Ular o'sha (so'z)ni bir-birlariga vasiyat qilib qoldirganmilar? Yo'q! Ular **tug'yonga ketgan** qavmlardirlar!.." (Voz-zoriyot surasi 53-oyat)

"Uning yaqini (shayton): "Parvardigoro, uni men **tug'yonga solganim** yo'q, lekin uning o'zi (haq yo'ldan) yiroq zalolatda bo'ldi", - deydi..." (Qof surasi 27-oyat)

Shuningdek, "Yaqinda (Qiyomatda) sizlar(ni hisob-kitob qilish) uchun **foriq bo'lajakmiz**, ey, insu jinlar!.." (Ar-Rahmon surasi 31-oyat). Ushbu tafsir matnidagi foriq bo'lmoq frazemasi hozirgi kundagi forig' bo'lmoq-yo'qolmoq leksemasidir.

Yuqorida keltirib o'tilgan ayrim frazeologik birliklarimiz asosida Qur'oni karim tafsir matnlari leksik imkoniyatlarini to'laqonligi ravishda ochib bera olmaymiz. Biroq lingvistik jihatdan tahlil qilishimiz asosida tilshunosligimizda diniy matnlar, atamalar va iboralarga bo'lgan e'tiborni, o'z navbatida esa diniy uslub

⁶ Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.-T.:Munis nashriyoti, 2021.

⁷Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.-T.:Munis nashriyoti, 2021

⁸Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur.Toshkent.1992



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



shakllanishiga zamin yaratadi. Bu orqali esa zamonaviy tilshunosligimizda yangi sohalar paydo bo'ladi va rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.T.:Munis nashriyoti, 2021
2. Shayx Alouddin Mansur . Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri.- T., 1992
3. Boltaeva B. I. O'zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi. Fil.fan disser avtoreferati. Samarqand, 2019
4. Maxmutov M. I., Xamzin K. Z., Sayfullin G. Sh. Arabsko-tatarsko-russkiy slovar zaimstvovaniy / pod red. M. I. Maxmutova. Kazan: Tatar. kn. izd-vo, 1965.
5. Vikipediya.onlayn ensiklopediya

